

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

O'zbekistonda eksport va import jarayonlarini raqamlashtirish imkoniyatlari

Toshtemirova Muxlisa Davronbek qizi

Возможности цифровизации экспортно-импортных процессов в Узбекистане

Тоштемирова Мухлиса Давронбек кизи

Opportunities for digitalization of export and import processes in Uzbekistan

Toshtemirova Muxlisa Davronbek kizi

Received: May 14, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida eksport va import jarayonlarini raqamlashtirishning dolzarbligi, mavjud holati va rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni tashqi savdo sohasiga keng joriy etish orqali jarayonlarning shaffofligi oshadi, byurokratik to'siqlar kamayadi hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlik kuchayadi. Maqolada ayni paytda mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilgan. Xususan, yagona raqamli platforma yaratish, elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yish, sun'iy intellektdan foydalanish va raqamli savodxonlikni oshirish kabi takliflar ilgari surilgan.
- **Kalit so'zlar:** Eksport, import, tashqi savdo aylanmasi, tashqi savdo faoliyati, investitsiya, ichki investitsiya, eksport diversifikatsiyalash, tashqi investitsiya.
- **Аннотация:** В данной статье рассматриваются актуальность, текущее состояние и перспективы цифровизации экспортно-импортных процессов в Республике Узбекистан. Анализ показывает, что широкое внедрение цифровых технологий во внешнюю торговлю способствует повышению прозрачности, снижению бюрократических барьеров и увеличению конкурентоспособности на международных рынках. В статье анализируются существующие проблемы и предлагаются конкретные решения, такие как создание единой цифровой платформы, переход на электронный документооборот, использование искусственного интеллекта и повышение цифровой грамотности среди предпринимателей.
- **Ключевые слова:** Экспорт, импорт, внешнеторговый оборот, внешнеэкономическая деятельность, инвестиции, внутренние инвестиции, диверсификация экспорта, внешние инвестиции.
- **Abstract:** This article explores the relevance, current state, and prospects of digitalizing export and import processes in the Republic of Uzbekistan. The analysis shows that the wide implementation of digital technologies in foreign trade can enhance transparency, reduce bureaucratic barriers, and increase competitiveness in international markets. The paper examines existing challenges and proposes practical solutions, including the creation of a unified digital platform, the transition to electronic document circulation, the use of artificial intelligence, and the improvement of digital literacy among entrepreneurs.
- **Keywords:** Export, import, foreign trade turnover, foreign trade activity, investment, domestic investment, export diversification, foreign investment.

KIRISH

Hozirgi sharoitda globallashuv jarayonida jahon savdo hamda tashqi savdo aloqalarini o'sishi va rivojlanishga sabab bo'ldi. Bu esa o'z navbatida mamlakatlardagi eksport va importni rag'batlantirishga yo'l ochdi.

Eksport o'zi nima-tovar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir bo'lgan mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga tovar bojxona chegarasini kesib o'tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijasida doir huquqlar taqdim etilgan paytda qayd etiladi. Ya'ni sodda tilda aytganda bir mamlakat hududda ishlab chiqarilgan hamda tegishli qoidalarga amal qiladigan tova va xizmatlarni boshqa davlatlarga sotish tushunadi. Bojxona hududidan xorijga tovarlar olib chiqilmydigan ayrim tijorat operatsiyalari tovarlar eksportiga tenglashtiriladi.

Import- tovar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalarini, shu jumladan ulargaa doir favqulodda huquqlarni bojxona hududida qaytarib olib chiqish majburiyatsiz olib kelishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonning eksport salohiyati haqida bir necha olimlar o'z fikrlarini bildirishgan bulardan iqtisodchi olim, pedagog M.Mirsaidov o'zining "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kitobida O'zbekistonning eskport salohiyati mamlakatimiz yuritayotgan tashqi siyosat bilan chambarchas bog'liq ekanligiga alohida urg'u qaratilgan. U keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston yuritayotgan tashqi iqtisodiy siyosatining ustun tarafi eksport qilinayotgan tayyor mahsulot turlarining ko'payotganini va xomashyo eksportining kamayotganidir. Masalan, mustaqillik yillarida "oq oltin" sifatoda tasvirlangan paxta faqat xomashyo sifatida eskport qilingan bo'lsa, hozirda milliy brendni jahonga tanitish natijasida ko'plab trikotaj mahsulotlari dunyo bo'ylab eksport qilinib kelmoqda. Shuningdek "Iqtisodiy ta'lim" jurnalida ham mamlakatimiz eksporti haqida so'z yuritilgan. O'zbekistonda yaratiglan qulay investitsiya muhiti xorijiy kompaniyalarda katta qiziqish uyg'otmoqda va bu investitsiyalardan mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Konsessiya sharoitlari, eksport sanoat hududlari, erkin savdo hududlari, erkin industrial iqtisodiy zonalarining amal qilishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun muhim omillardan hisoblanadi" [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda har sohada tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda jumladan iqtisodiyot sohalarida ham. Bunday islohotlar olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustivor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faoligiga bog'liq jarayonlardir. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faollikni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkaziladi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilindi hamda hayotga tadbqiq etildi. Bu yo'lda investitsion siyosatni o'rni juda katta hisoblanadi. Chunki mamlakatda korxonalarni qayta ta'mirlash hamda ularni rivojlanishiga yordam berish, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirish imkonini yaratadi. Aynan shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z investitsiya siyosatini olib bormoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR


Investitsiyalar faoliyatning kim tomonidan yuritilishi nuqtai nazaridan ichki va tashqi investitsiyalaridir.

Ichki investitsiyalar mamlakat hududida investitsiya faoliyatini yuritayotgan xo'jalik subyektlari, ya'ni investorlar tomonidan iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalardir.

Xorijiy investitsiyalar yoki tashqi investitsiyalar yoki tashqi investitsiyalar chet el mulkdorlarining mutlaq boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan taqiqlanmagan turli tarmoqlariga yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklardir.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda iqtisodiyotda savdo faoliyati o'zgarimas darajada muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, eksport-import jarayoni mamlakatlar orasida iqtisodiy o'sish hamda rivojlanishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 48.206,2 million AQSh dollarini tashkil etdi va 2023 yilning shu davriga nisbatan 3.452,1 million AQSh dollarga yoki 7,7 foizga o'sdi [3].


Xususan, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmidan eksport 19.773,8 million AQSh dollarini (tashqi savdo aylanmasida eksport ulushi 41%), import esa 28.432,4 million AQSh dollarini (tashqi savdo aylanmasidagi import ulushi 59%) tashkil etdi. Natijada O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi saldosi -8.658,6 million AQSh dollari miqdorida manfiy. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 190 davlati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Xitoy (18,7%),



1-rasm: Investor mamlakatlar bo'yicha to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar [2]

Rossiya (18,0%), Qozog'iston (6,2%), Turkiya (4,5%) va Koreya Respublikasi (3,1%) bilan qayd etildi.doni tashkil etdi[4]. Shuningdek, 2-rasmda mamlakatimizdagi tashqi savdo aylanasing statistikasi ko'rsatilgan. Bunda ko'rinib turibdiki,

eksport va import qilinayotgan mahsulot va xizmatlar o'tgan yilga (2023-yilga) nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan, bu natijaga albatta raqamli texnologiya hamda bunga oid qarorlar hamda strategiyalarning o'rni beqiyosdir.



2-rasm: O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi (2024-yil yanvar-sentabr, mln AQSh dollar) [5].

Bunga qo 'shimcha tarzda korxonalar faoliyatida ham uning samaradorligini oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarur. Bular orqali yangi texnologiyani jalb qilish hamda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari korxonalarning global iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim bo'lgan; eksportni diversifikatsiyalash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda logistika tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlarni joriy qilish eksport-import samaradorligini oshirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda eksport va import jarayonlarini raqamlashtirish – bu mamlakatning tashqi savdo faoliyatini yanada samarali, shaffof va tezkor qilishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishdir. So'nggi yillarda bojxona, litsenziyalash, logistika va to'lov tizimlarida qator raqamli platformalar joriy etilayotgan bo'lsa-da, bu jarayonlar hali to'liq integratsiyalashmagan. Asosiy muammo sifatida byurokratik kechikishlar, tizimlararo nomuvofiqlik va kadrlar salohiyatining yetishmasligi ko'rsatilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali esa tashqi savdo operatsiyalarining tannarxi kamayadi, korruptsiyaviy xavf pasayadi hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi.

1. Yagona raqamli platforma yaratish – eksport-import bilan bog'liq barcha jarayonlarni yagona elektron tizimda to'plash va bu tizimni bojxona, soliq, bank, logistika kabi sohalar bilan integratsiya qilish.
2. Elektron hujjat aylanishini rivojlantirish – eksport-import hujjatlari (kontraktlar, sertifikatlar, hisob-fakturalar)ni to'liq raqamli formatga o'tkazish orqali vaqt va xarajatlarni kamaytirish.
3. Sun'iy intellekt va "big data" texnologiyalarini joriy etish – statistik tahlil, kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va bojxona monitoringi uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish.

4. Tadbirkorlar uchun raqamli savodxonlikni oshirish – eksportyor va importyorlar o'rtasida raqamli tizimlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus treninglar va onlayn kurslar tashkil etish.

5. Xalqaro tajriba asosida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – ilg'or davlatlar tajribasini inobatga olgan holda raqamlashtirishga oid qonunchilikni modernizatsiya qilish.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Toshtemirova Muxlisa Davronbek qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi / Тоштемирова Мухлиса Давронбек кизи студент Деновского института предпринимательства и педагогики / Toshtemirova Muxlisa Davronbek kizi A student of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy**

► Email-muxlisa.toshtemirovaa@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-8999-1245>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Iqtisodiyot va ta'lim" 2018. – Ilmiy jurnal. –77 b.
- [2] Tursunova.M.R O 'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat o'zgarishlari monitoringi Iqtisodiyot va ta'lim/ 2022-yil 2-son
- [3] <https://invexi.org/uz/press/uzbekistan-s-foreign-trade-turnover-in-january-september-2024-amounted-to-48-2-billion/>
- [4] <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yan-giliklar/57551-o-zbekiston-respublikasi-tash-qi-savdo-aylanmasi-2024-yil-yanvar-iyun-4>
- [5] <https://invexi.org/uz/press/uzbekistan-s-foreign-trade-turnover-in-january-september-2024-amounted-to-48-2-billion/>